



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

_____ hokimligi

maktabgacha va maktab ta'limi

boshqarmasi

_____ maktabgacha va

maktab ta'limi bo'limi mas'ulidagi

_____-maktabgacha ta'limi tashkiloti

KICHIK GURUH TARBIYACHISI

_____ning

2025-yil 1-iyul to'g'ri qayab qolmashtirish davrida

islohotlar tashkil etish bo'yicha

METODIK TAVSIYA



Maktabgacha
ta'limi agentligining
2025-yil _-maydagi
__-sonli buyrug'iga
2-ILOVA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA YOZGI
SOG'LOMLASHTIRISH ISHLARINI TASHKIL
ETISH BO'YICHA**

METODIK TAVSIYA

"YOZ - O'TMANGAN SOZI!"

KICHIK GURUH

NAMUNA



Ushbu metodik tavsiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagogik jamoasi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda maktabgacha yoshdagi bolalarni yozgi sog'lomlashtirish, chiniqtirish, ularning salomatligini mustahkamlashning maqsad va vazifalari, ushbu davrni tashkil etuvchi pedagogik jamoa a'zolarining lavozim vazifalari, davr davomida o'tkazish tavsiya etilgan rivojlantirish markazlaridagi ta'limiy-tarbiyaviy jarayon va umumiy guruhlarda ishlash tafsiloti bayon etilgan.

Shuningdek, metodik tavsiyada yozgi tadbirlarni tashkil etishda hayot xavfsizligi asoslari, suv havzalaridan foydalanish, bolalarni sog'lom va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ham yoritilgan.

Mazkur qo'llanma maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari va ota-onalarga mo'ljallangan bo'lib, undan pedagog mutaxassislar ijodiy yondashgan holda ta'lim jarayonini mazmunan boyitishlari mumkin.

Mualliflar:

- | | |
|-------------------|--|
| N.Umirzakova bosh | – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi bosh mutaxassis |
| M. Ishoqova | – MRN, katta o'qituvchi |
| M.Fayzullayeva | – MRN, MQTMOI, katta o'qituvchi |
| S. Rahimova | – MRN, MQTMOI, katta o'qituvchi |
| H. Rizayeva | – Toshkent shahri MTB, metodist |
| M. Muhamadaliyev | – Toshkent shahri, Yunusobod tumani
288-MTT, metodist |
| D. Mu | – Toshkent shahri, Yunusobod tumani
301-MTT, direktor |

Mundarija

Soʻz boshi

Yozgi sogʻlomlashtirish davrining maqsad va vazifalari

Yozgi sogʻlomlashtirish davrini tashkil etishga oid meʼyoriy hujjatlar

Maktabgacha taʼlim tashkilotining yozgi davrga tayyorligi mezonlari

Yozgi sogʻlomlashtirish davrida foydalaniladigan anjom va jihozlar

MTT xodimlarining yozgi sogʻlomlashtirish davrini samarali tashkil etishdagi asosiy vazifalari

Yoz davrida sogʻlomlashtirish tadbirlari shakllari

Ilovalar:

1-ilova. Maktabgacha taʼlim tashkilotining yozgi sogʻlomlashtirish davri uchun ish rejasi (namuna)

2-ilova. Maktabgacha taʼlim tashkilotida yozgi sogʻlomlashtirish davrining taxminiy kun tartibi

3-ilova. Yozgi sogʻlomlashtirish davrida chiniqtirish tadbirlari

4-ilova. Yoz davrining muhim sanalari

5-ilova. Yoz davrida bolalarni sogʻlomlashtirish uchun ishlatiladigan metodlari

6-ilova. Yozgi sogʻlomlashtirish davrining oʻtkazilishi boʻyicha namunasi
Maktabgacha taʼlim tashkilotida yozgi sogʻlomlashtirish davrining taxminiy faoliyat turlari

Soʻz boshi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni, bilan birga tasdiqlangan 2023 — 2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida qator vazifalarni belgilab berdi.

Belgilangan vazifalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni sogʻlom, jismoniy barkamol va har tomonlama rivojlanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishini inobatga olgan holda maktabgacha taʼlim tashkilotlarida yozgi sogʻlomlashtirish va chiniqtirish ishlarini samarali tashkil etilishiga alohida eʼtibor berish zarur.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarni sogʻlomlashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish yozgi sogʻlomlashtirish davri (iyun-avgust)da amalga oshiriladi. Aynan, yoz faslida bolalarning ochiq havoda koʻproq sayr qilishlari, tanasini chiniqtirish, harakatda boʻlish va salomatligini mustahkamlash uchun maktabgacha taʼlim tashkilotlarida qulay va zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, yozda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan oʻtkaziladigan barcha tadbirlarni yengillashtirish, qiziqarli va yorqin oʻtishini taʼminlash, chiniqtirish mashqlar, turli koʻngilochar tadbirlarni muntazam uyushtirish, kichik sport tashkillashtirish, ijodiy va amaliy ishlarni bajartirish, suv muhlajini oʻrganish, qoʻllash va alohida belgilangan kun tartibiga qatʼiy amal qilish taʼlimi etiladi.

Yozgi davrda oʻquv yili davomida olib borilgan rivojlantirish, tarkibiy va umumiy guruhlardagi taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat davom ettirilishiga mos berilgan oy va haftalar mavzulari asosida har kuni taʼlimiy faoliyat tashkil etiladi. Bunda yosh guruhlaridagi bolalarning rivojlantirish maqsadlarini oʻrganish-yasash va matematika; syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish, nutq, fan va tabiat; sanʼat)dagi erkin faoliyatlari hamda umumiy guruhlarida (musiqa, nutq oʻstirish, jismoniy tarbiya, badiiy adabiyot, matematika, ikkinchi tilni oʻrganish) faoliyatlarini olib borish taʼlimiy faoliyatidir. Quyida ushbu jarayonni tashkil etish boʻyicha mavzuli rejalashtirish namunasini keltirilgan. Pedagoglarning ushbu namunaviy rejalashtirishdan tashkilotning oʻz yosh guruhining shart-sharoiti va albatta, bolalarning yosh xususatlari, faolligi va ehtiyojlaridan kelib chiqib ijodiy yondashgan holda taʼlimiy faoliyatni uyushtirish etiladi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida yozgi sogʻlomlashtirish davrida amalga oshiriladigan tashkilot metodistining sogʻlomlashtirish hamda nazoratga doir chora-tadbirlar rejasining mavbatdagi pedagogik kengashida tasdiqlanadi. Tashkilotning yozgi sogʻlomlashtirish davri ish rejasida taʼlimiy-tarbiyaviy ishlar,

sogʻlomlashtirish-chiniqtirish ishlari, tashkiliy ishlar (obodonlashtirish, moddiy-texnik bazani boyitish) hamkorlik ishlari, sport va koʻngilochar tadbirlari belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Ish reja namunasi ilovada havola qilingan.

Yozgi sogʻlomlashtirish davri boshida “Bolalar xavfsizligi va sogʻligʻini muhofaza qilish” yoʻriqnomasi bilan barcha pedagog xodimlarini tanishtiriladi hamda tashkilotning metodisti, hamshirasi, jismoniy tarbiya yoʻriqchisining yozgi davrda amalga oshiradigan vazifalari aniq belgilab beriladi.

Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlari samarali o'tkazilishi maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasining o'z vaqtida va puxta tayyorgarlik ko'rishiga bog'liqdir.

Bu davrda bolalarning sog'ligini mustahkamlash uchun bor imkoniyatlardan foydalanib maydonchalarni tayyorlash, barcha tadbirlarni har bir bolani yaxshi rivojlanishi va ularni chiniqtirishga qaratish lozim.

Yozgi sog'lomlashtirish davrining maqsad va vazifalari:

Bugungi kunda ekologik vaziyatning yomonlashuvi yoshlarning, xususan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning sog'lig'i, jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada sog'liqni saqlash, umumiy rivojlanish va profilaktik vazifalarni hal qilishda sog'liqni himoyalash texnologiyalari, ularni optimal va oqilona tashkil etilishidan faol foydalanish kerak bo'ladi.

Bunday vazifalarni amalga oshirishning eng samarali shakllaridan biri yoz faslidir. Yoz- bolalar juda ko'p yurish, chopish va sakrashni mumkin bo'lgan ajoyib va unumdor vaqt.

Yozgi sog'lomlashtirish davrining maqsadlari:

- salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash;
- bolalarning shikastlanishi va kasallanishini oldini olish;
- yozgi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning harakatlanish faolligini, kognitiv rivojlanishini ta'minlash;
- bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga, salomatlik va ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning samarali shakl va usullarida faol ishtirok etish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.

Yozgi sog'lomlashtirish davrining vazifalari:

- bolalarning salomatligini mustahkamlash;
- tabiiy omillardan keng foydalanish hisobiga bolalarning umumiy harakatlanish va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini amalga oshirish, quyosh, suv;
- o'quv yili davomida olingan BKMni mustahkamlashga qaratilgan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish;
- sog'lom turmush tarzi va bilimga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish;
- xavfsiz xatti-harakat ko'nikmalarini shakllantirish;
- tabiat qo'yni (gulzor, bog', maydon, do'konasi)da mehnatni tashkil etish, bilish faoliyati, turli xil ta'limiy va sport o'yinlarni tashkil etish, amaliy kuzatish, tajriba-eksperimentlar, o'zgaruvchan tabiiy-tadqiqot faoliyati uchun tabiiy muhit (sharoit)dan foydalanish;
- ota-onalar o'rtasida yozgi sog'lomlashtirish masalalari bo'yicha pedagogik va sanitariya-targ'ibot ishlari amalga oshirish, yozgi davrda ularni bolalar bilan birgalikdagi tadbirlarga jalb qilish.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida kattalarning asosiy vazifasio'sib borayotgan organizmning dam olish, ijodiy faoliyat va harakatga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirishdir.

Yozgi sog‘lomlashtirish davrini tashkil etishga oid me‘yoriy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risidagi”gi 2019-yildagi 16-dekabrdagi 595-son qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat maktabgacha ta‘lim muassasalarida sog‘lom ovqatlanirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi”gi 2019-yil 25-iyuldagi 626-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi bosh davlat sanitariya vrachining qarori
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 26-iyunda hisobga olindi, hisob raqami 30-son] SanQvaN № 0016-21

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining 17-dekabrdagi 15-son va Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 17-dekabrdagi 138-son qaroriga “Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarni hayotiy sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi”gi tasdiqlanadigan haqida”gi qarorga kiritilayotgan o‘zgartirishlar qo‘shma qarori.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotining sog‘lomlashtirish tayyorligi mezonlari:

-o‘yin va jismoniy tarbiya maydonchalarini SanQvaN talablari asosida jihozlanishi, bolalar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish bo‘yicha ko‘rsatmalarga rioya qilish;

-kerakli hujjatlarning mavjudligi; yozgida bolalar uchun DMTTning ish rejasi, ichimlik bilan ta‘minlash rejasini tashkil etish, bolalar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, tashkilot hududida bolalar uchun ekskursiyalar va sayohatlarni tashkil etish, bolalarni o‘z vaqtida ovqatlanish boshqa narsalar bilan zaharlanishining oldini olish bo‘yicha ta‘lim berish, bolalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish-profilaktika tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ta‘lim berish, bolalar uchun ota-onalar uchun turli tavsiyalar va maslahatlar;

-qum va bolalar uchun maydonchasini o‘z vaqtida namlantirish uchun sharoit yaratish;

-bolalar bilan yozgi sog‘lomlashtirish davrini tashkil etishni nazorat qilish tizimining mavjudligi.

Sport, harakatli o‘yinlar, sport bayramlari, ekskursiya va boshqalarni o‘tkazish, shuningdek, sayrlar davomiyligini oshirish tavsiya etiladi.

veb-saytimiz: Zokirjon.com

**Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.**

Zokirjon Admin bilan

**+99891-328-88-38 nomerga telegramdan
yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab
telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.**

**26 listdan iborat yoz davri kichik guruhlariga
metodik tavsiyani to'liq holda olish uchun
telegramdan yozing.**




Narxi: 15 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.**

Sizga bu **OMONAT qilib beriladi.**

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.**

Internet veb-saytlarga joylamang.

**Telegram orqali kanal va gruppalariga
tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**